



XORAZM VILOYATI BOG‘OT TUMANI: ETNOGRAFIYASI, ETNIK QIYOFASI VA TURISTIK SALOHIYATI TAHLILLARI

Raximboyeva Madina Batirbay qizi

Urganch davlat universiteti magistratura

bo‘limi Tarix yo‘nalishi magistranti

Urganch, Xorazm

Annotatsiya: Mazkur maqolada Bog‘ot tumani etnik tarkibi, madaniy xususiyatlari, tarixiy obidalari, turistik salohiyati hamda kelajakda turizmni rivojlantirish istiqbollari haqida so‘z yuritiladi. Tumanning geografik xususiyatlari, tabiiy boyliklari va turizmni rivojlantirish uchun mavjud imkoniyatlari ham tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: Turizm, etnoturizm, Qalajiqqal’a, Bayramsoqa, Qizilrabot, Qorayantov va Oqyop, Qoraqum, Xorazm, madaniy meros.

Etnoturizm mamlakatimizda iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy ahamiyatga ega bo‘lgan keng qamrovli tarmoqlardan biri bo‘lib, daromadliligi bo‘yicha dunyoda uchinchi o‘rinda turadi. Ushbu turizm turi kam xarajat sarflagan holda ko‘plab ish o‘rinlari yaratish i

Xorazm viloyatining tarixiy-madaniy merosi asosan YUNESKOning moddiy meroslarni asrash ro‘yxatiga kiritilgan bo‘lib, endigi vazifa viloyatdagi turistik salohiyatni yanada jadallashtirish va sayyohlarni ko‘proq jalb qilishdan iborat. 2023-yil 29-mart kuni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida bo‘lib o‘tgan mamlakatimiz turizm



salohiyatini oshirish masalalari muhokamasiga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida ham bu borada so'z bordi. Uning rivojiga to'siq bo'layotgan muammolar tanqidiy tahlil qilindi va zarur chora-tadbirlar belgilandi. Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Turizm iqtisodiy rivojlanishning muhim drayveriga aylanishi uchun mavjud imkoniyatlarni to'liq ishga solish zarur"¹

2022-yilda yurtimizga tashrif buyurgan xorijiy turistlar soni 2021-yilga nisbatan 3 baravar oshgan holda, sohaning umumiy daromadi 1 milliard 600 million dollarni tashkil etdi. Ichki turizm dasturlari doirasida 11 milliondan ziyod aholi sayohat qilgan. Sohani samaradorligini oshirish uchun 11 ta oliy ta'lim muassasasi birlashtirildi. Ular 31 ta tuman va 143 ta turizm mahallasining tarixi, yodgorliklari va diqqatga sazovor joylari haqida ma'lumotlar majmuini yaratishi belgilandi. Ana shu asosda 12 tilda turistik paketlar ishlab chiqish vazifasi qo'yilib, turizm va servis obektlari ishchilarini o'qitish rejalashtirildi. Masalan, Urganch davlat universitetiga Bog'ot va Xiva tumanlarining turistik salohiyatini oshirish, sayyohlarning bu yerda ko'proq bo'lishini ta'minlash maqsadida, ilmiy-amaliy yondashgan holda, turizm obektlari va mahsulotlari kontentini boyitishi lozimligi belgilandi.

Statistik tahlillarga ko'ra, 2022-yil davomida Xorazm viloyatidagi madaniy meros va turizm namoyish obyektlariga tashrif buyurgan xorijiy sayyohlar soni 137,5 ming nafar bo'lib, mahalliy sayyohlar soni esa 1,5 millionni tashkil etdi².

Bog'ot tumani ham O'zbekiston Respublikasining Xorazm viloyatida joylashgan bo'lib, o'zining boy tarixi, madaniy merosi va turistik salohiyati bilan ajralib turadi. Ushbu hudud qadimiy Xorazm sivilizatsiyasining ajralmas qismi bo'lib, asrlar davomida muhim iqtisodiy va madaniy markazlardan biri bo'lib kelgan. Bog'ot tumani Xorazm viloyatining

¹ Sh.Mirziyoyev 2023-yilgi nutqidan

² Xorazmstat. Bog'ot tumani aholisi soni qanchaga oshgan? <https://www.xorazmstat.uz>



janubi-g'arbiy qismida joylashgan va 1926-yil 29-sentabrda tashkil etilgan. Hudud shimolda Xiva, g'arbda Shovot, janubda esa Qoraqalpog'iston Respublikasi bilan chegaradosh. Tuman hududi Amudaryo orqali sug'oriladigan serhosil yerlar bilan ajralib turadi. Sug'orish tizimi Toshsoqa kanali va uning tarmoqlari – Bayramsoqa, Qizilrabot, Qorayantov va Oqyop ariqlari orqali amalga oshiriladi. Janubiy qismida esa Qoraqum cho'liga tutash hududlar mavjud bo'lib, bu yerda qumli va qumoq tuproqlar tarqalgan. Tuman aholisi asosan bog'dorchilik va chorvachilik bilan shug'ullanadi. Ushbu tuman boy tarixiy-madaniy merosga ega bo'lib, ayniqsa Qal'ajiqqal'a yodgorligi bilan mashhur. Qal'ajiqqal'a mahallasi tumaning eng faol va turistik salohiyati boy bo'lgan hududlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasiga ko'ra, "Bog'ot tumani qadimdan Xorazm vohasining muhim qismi bo'lib, uning aholisi madaniy va iqtisodiy jihatdan ancha rivojlangan"³

Tuman aholisi asosan o'zbeklardan iborat bo'lsa-da, tarixan qozoq va qoraqalpoq millatiga mansub aholi ham yashab kelgan. Mahalliy aholining urf-odatlar, an'analari va turmush tarzi Xorazmning umumiy madaniyati bilan chambarchas bog'liq.

So'nggi yillarda tumanning turistik salohiyati ortib, uning tarixiy va tabiiy obidalarini sayyohlar uchun qiziqish uyg'otmoqda. Xususan, "Qalajiqqal'a" yodgorligi va unga tutash hududlarda etnoturizm, ekoturizm va sog'lomlashtirish turizmini rivojlantirish imkoniyatlari katta.

Bog'ot tumanidagi Qal'ajiq qal'a sayyohlik majmuasida turli turdagi sayyohlik turfirmalari xizmat ko'rsatishi ko'zda tutilgan bo'lib, ular tomonidan 2022-yil mobaynida

³ O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2022



160 nafar chet ellik sayyohning bo‘lishi ta’minlangan. Ularning bu joylarda qolish davomiyligi 1 kunni tashkil etmoqda⁴

Qal’ajiq qal’a turistik majmuasi Bog‘ot tumanining turistik salohiyatini oshirishning asosiy imkoniyati hisoblanadi. Qumli Qoraqum cho‘lining o‘rtasida joylashgan g‘aroyib shaharchada, ikkita asosiy diqqatga sazovor joy – yoshi qariyb uch ming yilga teng qal’a va shifobaxsh xususiyatlarga ega sho‘r ko‘l mavjud. Ko‘l yonida joylashgan sog‘lomlashtirish markazi mahalliy aholi vakillarining dam olish jarayonining asosi hisoblanadi. Ko‘l suvi tarkibidagi foydali elementlar yurak-qon tomir tizimining faoliyatini yaxshilashga, qon aylanishini barqarorlashtirishga yordam beradi. Uning o‘ziga xos shifobaxsh xususiyatlarining mashhurligi shu kungacha saqlanib qolgan. Shuning uchun bu yerga butun sayyohlardan sayyohlar kelib dam olishadi⁵.

Afsuski, obyekt hali maxsus turistik infratuzilmaga ega emas. Unga borish yo‘llari tuproq qatlami bilan qoplangan. Yog‘ingarchilik paytlarida qiyinchiliklar yuzaga keladi. Majmuada 20 o‘rinli mehmonxona, 200 o‘rinli restoron tashkil qilingan. Shuningdek, Qal’ajiq qal’a turistik majmuasining yon tomonidagi Boyxon baliqlari fermer xo‘jaligiga qarashli hududlarda ov turizmi, safar turizmi kabi sayyohlik turlarini rivojlantirish imkoniyatlari bor. Bog‘ot tumani bog‘dorchilik mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashgan hudud bo‘lganligi sababli bu yerda Uzunchilik agroturizm qishlog‘ini shakllantirish imkoniyatlariga boyligi bilan ajralib turadi.

Bog‘ot tumanida turizmni rivojlantirish istiqbollari. Bog‘ot tumani turizmni rivojlantirish bo‘yicha katta salohiyatga ega. Xususan, quyidagi turistik yo‘nalishlarni rivojlantirish maqsadga muvofiq:

⁴ <https://uzbekistan.travel> sayti

⁵ Yuz.uz. Katta salohiyatni ishga solish imkoniyatlari. <https://yuz.uz/uz/news/katta-salohiyatni-ishga-solish-imkoniyatlari>



1. Etnoturizm – Mahalliy aholining an'anaviy turmush tarzi, hunarmandchiligi va milliy taomlarini targ'ib qilish orqali xorijiy sayyohlarni jalb etish.
2. Ekoturizm – Qoraqum cho'li, Amudaryo va Toshsoqa kanali bo'ylab ekologik sayohatlar tashkil etish.
3. Sog'lomlashtirish turizmi – "Qalajiqqal'a" yodgorligi yonidagi sho'r suvli ko'l negizida davolash markazlari tashkil etish.
4. Qishloq xo'jaligi turizmi – "Uzumchilik" agro-turizm qishlog'ini yaratish, meva-sabzavot yetishtirish tajribasini sayyohlarga namoyish etish.
5. Ov turizmi va safar turizmi – "Boyxon baliqlari" fermer xo'jaligi hududida baliq ovlash va tabiat qo'ynida dam olish imkoniyatlarini kengaytirish.

Xulosa qilib aytganda, Bog'ot tumani va uning Qal'ajiqqal'a yodgorligi O'zbekistonning boy tarixiy-madaniy merosini namoyish etuvchi muhim maskanlardan biridir. Ushbu hududning turistik salohiyatini oshirish orqali nafaqat iqtisodiy rivojlanishga erishish, balki milliy madaniyatimizni dunyoga tanitish imkonini beradi. Ammo bu salohiyatni to'liq ishga solish uchun bir qator muhim chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim:

1. Turistik infratuzilmani rivojlantirish – yo'llarni yaxshilash, mehmonxonalar va dam olish maskanlarini qurish;
2. turizmni xalqaro darajada targ'ib qilish – xorijiy sayyohlarni jalb qilish uchun reklama kampaniyalarini kuchaytirish;
3. madaniy va ekoturizm dasturlarini rivojlantirish – sayyohlik yo'nalishlarini kengaytirish va mahalliy aholining ishtirokini oshirish;
4. yangi ish o'rinlari yaratish – mahalliy aholining turizm sohasida ish bilan ta'minlanishini ta'minlash.

Kelajakda turizmni rivojlantirish uchun quyidagi tavsiyalar berish mumkin:



1. Turistik infratuzilmani rivojlantirish uchun davlat va xususiy sektor hamkorligini kengaytirish;
2. xalqaro turistik brend sifatida Bog‘ot tumanining salohiyatini targ‘ib qilish;
3. sayyohlar uchun qulay sharoitlar yaratish, yo‘l-transport tizimini yaxshilash.

Agar bu chora-tadbirlar amalga oshirilsa, Bog‘ot tumani xalqaro darajadagi sayyohlik markaziga aylanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining "Turizm to‘g‘risida"gi Qonuni, 2019-yil 18-iyul, O‘RQ-549-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi Qarori, 2019-yil 5-yanvar, PQ-4095-son.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2022-2026-yillarda Xorazm viloyatining turizm salohiyatini kompleks rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi Qarori, 2022-yil 28-sentabr, 546-son.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2024-2026-yillarda Xorazm viloyatining turizm salohiyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi Qarori, 2024-yil 15-noyabr, PQ-394-son.
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2021-2022-yillarda Xorazm viloyatining turizm salohiyatini rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi Qarori, 2021-yil 14-iyun, 369-son.
6. Beruniy, Abu Rayhon. Tanlangan asarlar. 1-jild. Toshkent: Fan, 1968. – B. 51.
7. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi (O‘zME). 1-jild, "B" harfi. Toshkent: 2000-yil.
8. Umid Bekmuhammad. Xorazm va Xorazmliklar. Buxoro, 2023. – B. 5.



9. Nafasov T., Nafasova V. O'zbek tili toponimlarining o'quv izohli lug'ati. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2008. – B. 32.
10. Xorazmstat. Bog'ot tumani aholisi soni qanchaga oshgan? <https://www.xorazmstat.uz>
11. Yuz.uz. Katta salohiyatni ishga solish imkoniyatlari. <https://yuz.uz/uz/news/katta-salohiyatni-ishga-solish-imkoniyatlari>
12. Allaberganov Allayor. Dala tadqiqoti: Bog'ot tumani. 2024-yil.
13. Sobirov Q. Xorazmning qishloq va shaharlari mudofaa inshootlari - Toshkent, Fan. 2009.
14. Sobirov Q., Abdrimov R., Karimov Y. Xorazm ilk o'rta asr yodgorliklarida arxeologik tadqiqotlar// Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi - Xiva, 2015.